

O‘ZBEKISTONNING TARIXIY SHAHARLARI

Djumabayeva Jadra Qaxramanovna

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 23-UO‘T maktabi tarix va geografiya, iqtisod fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizning ulkan tarixga ega bo‘lgan tarixiy shaxarlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, Buxoro, Termiz, Shahrisabz, shahar, qishloq, madaniyat, ko‘chamanchi, ovchi.*

SHaharlarni sivilizatsiyamizning bir qismi deb bilamiz. Katta shaharlar turli xil odamlar birgalikda ishlash va yashashni o‘rganganida paydo bo‘lgan. Shahar, shaharcha va qishloq bir-biridan asosan o‘lchami bilan farq qiladi. Ko‘pgina hollarda shahar eng katta aholi punktidir.

Deyarli barcha shaharlar qishloqlardan kengayishi tufayli hosil bo‘lgan. Birinchi shahar qachon va qayerda paydo bo‘lganini hech kim bilmaydi. Unga birorta ko‘chmanchi ovchilar qabilasi tomonidan asos solingan bo‘lishi mumkin. Ovchilar topgan joy ularga shunchalik yoqqanki, ular o‘sha yerda qolishni xohlagan. Bu miloddan avvalgi 6000-yil yoki undan ham oldinroq sodir bo‘lgan. Taxminan miloddan avvalgi 3000-yil odamlar katta shaharlar qurib, ularda yashay boshlagan.

Tarixdan ilgari davrlarda odamzod tutilgan hayvonlar qo‘lga o‘rgatilsa, oziq-ovqat ta‘minoti ancha yengillashishini aniqlagan. Odamlar har safar och qolganda o‘rmon bo‘ylab hayvonlarni quvib yurishni istamagan. Shuningdek, ular o‘simliklarni parvarish qilib, ko‘proq meva va don olish mumkinligini ham bilib olgan. Shu tarzda qishloq xo‘jaligi paydo bo‘lgan. Ammo bir vaqtning o‘zida ham ko‘chmanchilik, ham yerga ishlov berib bo‘lmas edi. Hosilni yig‘ib olish uchun bir joyda qolish kerak edi. Chorva mollarini haydab yurish ham oson ish bo‘lmagan. Qabilalar turg‘un hayot kechira boshlagach, qishloq va shaharchalar paydo bo‘lgan.

Birinchi qishloqlar teri, yog‘och yoki loydan qurilgan binolardan iborat bo‘lgani uchun ulardan hech narsa qolmagan. Vaqt o‘tishi bilan odam bardoshli materiallar yasashni o‘rgangan va qishloqlar kengayib, shaharlarga aylana boshlagan.

O‘zbekiston tarixida ham ulkan tarixga ega shaharlar juda ko‘p ularga to‘xytalib o‘tamiz:

Samarqand – O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatidagi qadimiy shahar. Viloyatning ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy markazi (1938-yildan). 1925-1930-yillarda Respublika poytaxti. O‘zbekistonning janubi-g‘arbida, Zarafshon vodiysining markaziy qismida (Darg‘om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. Tarixiy yozma manbalarda Samarqand yoshi qadimiyligi haqida ma‘lumotlar bor. Muhammad an-Nasafiy „al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand“, Haydar as-Samarqandiy (XII asr) „Qandiyai Xurd“, Abu Tohirxoja Samarqandiy „Samariya“, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida bu haqda yozib o‘tilgan. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib „Boqiy shaharlar“ nomini olganlar. Xalq iborasi „Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast“ – Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi)

deb behuda aytilmagan. Amir Temur Samarqandni mehr bilan qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

Samarqand - Madaniyatlar chorrahasi Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni - qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzi deb atashganlarida ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo'lardilar. Samarqandning madaniy merosi juda katta. Asrlar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan.

XXI asr boshlarida shahar YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi!

Shaharni ziyorat qilsangiz, siz bu yerda joylashgan tarixiy obidalarining sonidan hayratda qolasiz, ammo biz sizga albatta ko'rishga arziydigan eng mashhur diqqatga sazovor joylarni ko'rsatishga harakat qilamiz!

Samarqand sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. U 2750 yoshdan oshgan. Shahar har doim haqiqiy sharqona mehmondo'stlikning chinakam namunasi bo'lgani bilan ajralib turgan. Bu yerda bir necha millat vakillari doimo muammosiz yashab kelgan. Samarqandni odatda "Sharqiy Bobil" deb atashadi.

Unda go'yo ulkan oynadagidek yo'l aks etadi. Ko'p avlodlar bosib o'tgan yo'l. Shaharning boy voqealari, yuksalishlar va pasayishlar, qimmatbaho topilmalar va eksponatlar, qadimiy obidalar dastlabki odamlar bu hududda ming yillar oldin yashay boshlaganliklarini tasdiqlashga imkon beradi.

Qadimgi afsonaga ko'ra, Samarqand shahri tashkil etilganida (miloddan avvalgi VIII asrda) Zarafshon tog'laridan qoplon kelib, shahar qurilishini ma'qullagan ekan. O'shandan beri Samarqandda odamlar o'zlarini qoplon bilan bog'lashadi - ular xuddi o'shanday mag'rur, xuddi o'shanday qat'iyatli va xuddi o'shanday saxiydirlar.

Samarqand nomi so'g'd tilidagi Smr'kand so'zidan kelib chiqib, "tosh qal'a" yoki "tosh shahar" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi davrlarda Samarqand eng qadimiy So'g'diyona davlatining poytaxti bo'lgan va Afrosiyob deb nomlangan. Qadimgi yunonlar orasida va Rimda shahar Marakanda nomi bilan tanilgan. Iskandar Maqduniy davrida ham Samarqand obodonlashtirilib, ancha rivojlangan shahar bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda Samarqand Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. 712-yilda shahar Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arablar tomonidan bosib olinib, Movarounnahr va Katta Xurosonning markaziga aylangan.

IX asrda Samarqand Somoniylar davlatining tarkibiga, X asr oxirida esa Qoraxoniylar davlatining tarkibiga kirgan. Bu davrda Samarqandda ulkan me'moriy inshootlar qurilgan bo'lib, ularning ko'p qismi, afsuski, Chingizxon tomonidan vayron qilingan. Keyin Samarqand mo'g'ullar istilosi natijasida vayron bo'lgan Xorazmshohlar davlatining tarkibiga kirdi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganida Samarqandda juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shahar yana poytaxtga aylandi, vayron bo'lgan binolarni tiklash ishlari boshlandi va Samarqand yana o'zining avvalgi ulug'vor holatiga qaytdi. Temuriylar davrida Samarqand faol rivojlanib bordi, dunyoning turli mamlakatlaridan olimlar va san'atkorlar bu yerga kelishga harakat qilishdi. Shaharda ilm-fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Buxoro - Islom madaniyati poytaxti. Muqaddas Buxoro O'zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy shahar markazi YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shaharning yoshi 2500 yildan oshgan. Buxoro — O'zbekiston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning ilk poytaxti. Muqaddas Buxoro O'zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy shahar markazi YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shaharning yoshi 2500 yildan oshgan. Ushbu shahar O'zbekiston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Buyuk ipak yo'lida yirik tijorat markazlaridan bo'lgan.

Buxoro shahri sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroga miloddan avval VI asrda asos solingan. Bu shaharning har bir go'shasida - boy tarixga ega minoralari, osori- atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor.

Xiva - Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar millodan avvalgi 5-asrda barpo etilgan va uning nomi shaharning qad. qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudugi bilan bog'liq.

Xiva o'zining tarixiy o'tmishi, me'moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan mazkur qad rostlagan shaharlar orasida alohida alohida o'rin tutadi. Yer kurrasida mashhur bo'lgan Qohira shahriga tengdosh bo'lgan bu shaharning Ichan qal'a qismi 1990-yil Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Dunyoga al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon (Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan azim zamin hisoblanadi.

Shahrisabz — O'zbekistonning qadimiy va go'zal shaharlaridan biri bo'lib, tarixiy markazi YUNESKONing Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Buyuk sarkarda Amir Temur shu shaharda tug'ilgan. Shaharga millodan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalarida asos solingan va ilk o'rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan.

Shahrisabzda mashhur bo'lgan joylar mavjud bo'lib, ular:

Qadimgi Oqsaroyning xarobalari,

Ko'k gumbaz masjidi,

Dor ut-Tilovat yodgorlik majmuasi.

Dorus-Saodat,

Shamsad-Din Kulyal,

Gumbazi-Seyidon maqbaralaridir.

Termiz — Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor. Ko'xna Termizning qal'a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarning tahliliga ko'ra shaharga millodan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalarida asos solingan.

Termiz shahri ko'plab katta voqealar va larzalarni boshidan kechirgan. Butun tarixi davomida Termiz Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyoti va o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim rol o'ynagan. «Buyuk Ipak Yo'li»ning asosiy chorrahalaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan qadim shahardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. Тошкент, 2001
2. Polatov X. Shaharsozlik tarixi.- O'quv qo'llanma - T., "Fan va texnologiya"
3. Motkurbonova Sh.A. "Tarixiy shahar markazlarda tashqi qurilmalar shakllanishi" «Международная конференция академических наук» Сборник статей ученых Центральной Азии Выпуск 22, часть 2. woconf.com. 2022-у.
4. Алламбергганов М. Қадимий мудофа деворлари. Тошкент, 2007.
5. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент, 1993.